

HOZIRGI ADABIY JARAYONDA BADIY DETALNING QO'LLANILISHI
(ZULFIYA QUROLBOY QIZINING "AYOL" HIKOYASI MISOLIDA)

Go'zalxon Muhammadjonova
filologiya fanlari doktori, dotsent
Mushtariybegim Abdunabiyeva
FarDU talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol" hikoyasida qo'llanilgan detallar tahlil qilingan. Hikoyada keltirilgan detallarning hikoya mazmunini va qahramon ruhiyatini ochib berishdagi ahamiyati tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: hikoya, detal, peyzaj, qahramon, ruhiyat, ayol, tabiat tasviri.

Zulfiya Qurolboy qizi hozirgi adabiy jarayonda o'zining nasriy asarlari bilan ko'plab kitobxonlar nazariga tushgan ijodkorlardan biri. Ayniqsa, hikoyalari orqali keng jamoatchilik diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Jumladan, "Ayol", "Yovuzlik farishtasi", "Muhabbat va nafrat", "Qadimiy qo'shiq", "Kuygan shahar" va yana bir qator hikoyalarini keltirishimiz mumkin.

Badiiy adabiyotning har bir janrida detallarning mahorat bilan qo'llanilishi ahamiyatli, albatta. Ammo shuni unutmasligimiz kerakki, hikoya janrida detalning o'z o'rne va ahamiyati bor.

O'quvchi asarni diqqat bilan o'qisa va detallarga ahamiyat bersa, ular "tilga kiradi" va o'quvchi voqelikni to'laqonli va aniq his etadi. Hikoyada muhimi detalni topishdir. Agar uni topa olsangiz, - deydi yozuvchi, u sizga butun xarakterlarni yoritib beradi, undan syujet ham, fikr ham, g'oya ham o'sib chiqaveradi. Detalning kuchi va mazmuni shundaki, tomchida quyosh aks etganidek, eng kichik detal o'zida asarning butun g'oyasini mujassam etadi.[1, 35]

Biz bu holatni Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol" hikoyasida ko'rishimiz mumkin. "Ayol" hikoyasining bosh qahramoni Nazokat og'ir betobligini sababli kasalxonada davolanadi. Hikoyaning ekspozitsiya qismidagi "devorlari oppoq xona", "deraza oynasidan to'kilayotgan oppoq nur" tasvirlari o'quvchining e'tiborini tortadi. Oq rang, avvalo, ayol qalbining sof va go'zal ekanligini ifoda etayotgan bo'lsa, yana bir tomondan, yaqinda yuz beradigan ayriliqqa ishora qiladi. Nazokatning turmush o'rtog'i - Shavkatni davolovchi shifokor xonasiga chaqiradi va "Nazokatning ahvoli yaxshi emas. Hozirligingizni ko'ravering", deb aytadi. Bu so'zlarni eshitgan Shavkat "boshini changallab qoldi", deya tasvirlanadi. Shavkatning bu xatti-harakati orqali uning ruhiy holati ochib berilgan va bu holat unda bir qancha muddat davom etadi. Voqealar rivojida Nazokat tashqariga chiqqanlaridan keyin erining "qovoqlari salqigan, kayfiyatsiz yuziga zimdan tikildi" kabi holatlar tasviri keltiriladi. Nazokatda bu ruhiy holatning aksi yuz berayotgan edi: "men oynaga boqib, qayta-qayta tikildim o'zimga, o'ladigan odamning yuzi bunaqa bo'lmaydi. Siz ham eshitganmisiz shu gapni ? " U hali hayotga va yashashga bo'lgan umidini yo'qotgani yo'q. Nazokat butunlay sog'ayib ketishiga ishonadi.

Bu hikoyada peyzaj tasviri va unda qo'llangan detallar alohida ahamiyatga ega. Tabiatning o'zgarishi va Nazokatning ahvoli, kayfiyati ko'p hollarda parallel holatda tasvirlanadi. Masalan, *"keyingi hafta surunkasiga Nazokatning harorati ko'tarilib, tushib turdi..."* va *"havo sovugan, osmonda uvada bulutlar kezinar, quyosh xiragina nur sochar, qorning hidi kelardi"* kabi misollarni keltirishimiz mumkin. Bu kabi peyzaj tasviri hikoya yakuniga qadar davom etadi. Nazokatning ruhiy holatini, kechinmalarini ochib berishga xizmat qiladi. *"Nazokat yota olmadi, o'rnidan turib, deraza oldiga keldi. Uning uyqusi o'chgan, butun olamni nigohlari bilan qamrab, unga joylab olmoqchidek, ochiq derazadan unsiz osmonga tikilar edi"*. Uning yota olmasligining sababi esa oyoqlari va boldirlari shishib ketadi. Ertasi kuni esa shish qoringa o'tadi va *"oshgan xamirday ko'pchib chiqadi"*. Uning tanasida va ruhiyatida kasallik bilan kurashish boshlanadi. Bu kurash tabiatda ham ro'y beradi. *"Jimir-jimir qilayotgan yulduzlar yaqinlashib kelayotgan tongga o'rin bermaslikka, asta-sekin xira tortib, so'nib yo'q bo'lib ketmaslikka tirishayotganday yanada yorqinroq jilva qilishardi"*.

Bu kurashning natijasi *"asta-sekin borliqqa kumushrang oqim yoyildi"* va *"Nazokat o'ringa cho'zildi. Boshini ko'rpa bilan burkab oldi. Ayol yig'lardi, unsiz yig'lardi"* kabi yakunlandi va kechga borib Nazokatning nafasi siqa boshladi. Qorni biroz kattalashganday bo'ldi.

Hikoyaning ekspozitsiya qismida Nazokatning barmog'ida olmos ko'zli uzugi bo'ladi va quyosh nuri unda jilvalanadi. Bu olmos ko'zli uzuk detali Nazokatning umidi va orzu-istaklari timsoli. Hikoyada davomida Nazokat doktordan qornida yig'ilgan suvni olib tashlashni iltimos qiladi, chunki uning bor umidi shundan edi. Buning isboti sifatida, *"Nazokat barmog'idagi tilla uzugini vrachning cho'ntagiga soldi. Suvni oling, iltimos. Faqat oxirigacha"* tasvirini keltirishimiz mumkin. Hikoya yakunida tilla uzuk yana uning barmoqlarida paydo bo'ladi. Bu esa qahramon umrining so'nggi damlarida ham umid bilan yashaganiga ishora qiladi.

Ayol kishi doimo go'zallikka va nafosatga intilib yashaydi. Ijodkor buni ham yodidan chiqarmaydi va ko'plab o'rinlarda bir qancha tasvirlar orqali ifodalaydi. Hikoya boshlanish qismida bosh qahramonning quyidagi tasvirlari keltiriladi: *"Haqiqatdan ham ochiq havoda uning yuzida kasallik nuqsi sezilmas, egniga to'kilgan upa g'ubori, havoga taralayotgan yoqimli hid uning o'ziga oro berganini bildirib turardi"*. Keyinchalik, uning ahvoli og'irlashgani va qornidagi suvni olib tashlash uchun doktorni ko'ndirgani o'quvchiga ma'lum. Operatsiya oldidan *"Nazokat jilmaydi, keyin yostig'i ostidan upa-elikni oldi"* deya tasvirlangan. Bu uning xarakterini ochib berishga xizmat qilgan. Nazokat har qancha betob bo'lmasin, kasalxonada davolanayotgan bo'lmasin, u, eng avvalo, ayol va doimo go'zal va latofatli ko'rinishni istaydi.

Hikoya yakunida ayolning vafot etganligi aytilmaydi, balki tabiat tasviridan o'quvchi buni tushunadi: *"asta quyosh bosh ko'tardi, quyosh nurlari xira va kuchsiz edi"*, *"har yer-har yerda uni uvada pardalardek kulrang bulutla to'sdi"*. Quyosh nurlari kasalxonada tepasiga kelib, *"ayol yuzida jilva qildi, qovoqlarini qizartirmoqchi bo'ldi, lekin tosh qotgan qovoqlar qilt etmadi"*.

Xulosa qilib, shuni aytishimiz mumkinki, Zulfiya Qurolboy qizi "Ayol" hikoyasida detallardan mahorat bilan foydalangan va bu orqali ijodkorning badiiy mahorati yaqqol namoyon bo'lgan. Qo'llanilgan detallar hikoyaning mazmunini to'liq va aniq ochib berishga

xizmat qilgan. Shu bilan birga, detallar qahramon ruhiyatining yoritib berilishida asosiy vazifani bajargan. Ayniqsa, peyzaj tasvirida keltirilgan detallar o'zbek adabiyotida ayol obrazini tasvirlash va hikoyadagi qahramon ruhiyatini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Solijonov Y. Hozirgi adabiy jarayon. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
3. Qayumov A. Detal va badiiy tasvir. O'zbek tili va adabiyoti. 2008/02.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: A. Qodiriy, 2004.
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
6. Zulfiya Qurolboy qizi. Ayol. Hikoyalar to'plami. – Toshkent: G'. G'ulom, 2019.
7. Mukhammadjonova Guzalkhan. He artist's image – landscape – literary synthesis// Models and methods in modern science. France. 12. 01.2022. P.46-48.